

8-10-2019

SYSTEM OF EXERCISES DIRECTED ON THE FORMING OF INTERCULTURAL COMMUNICATION OF STUDENTS

Nargiza Karimova

Namangan State University head teacher

Shuxrat Narzulayevich Ubaydullayev

Namangan State University Candidate of Pedagogical Sciences, Senior Lecturer

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Karimova, Nargiza and Ubaydullayev, Shuxrat Narzulayevich (2019) "SYSTEM OF EXERCISES DIRECTED ON THE FORMING OF INTERCULTURAL COMMUNICATION OF STUDENTS," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 4 , Article 67.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss4/67>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

SYSTEM OF EXERCISES DIRECTED ON THE FORMING OF INTERCULTURAL COMMUNICATION OF STUDENTS

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

TALABALARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA YO`NALTIRILGAN MASHQLAR TIZIMI

Karimova Nargiza

Namangan davlat universiteti

katta o`qituvchi

Ubaydullayev Shuxrat Narzulayevich

Pedagogika fanlari nomzodi, katta o`qituvchi

***Annatasiya:** Zamonaviy chet til ta'limi bilim berish bilan bir vaqtda madaniyatlararo muloqotga o'rgatishni nazarda tutadi. Madaniyatlararo muloqot ta'limi - bu milliy madaniyat va boshqa madaniyatlarni ongli o'rganish/o'rgatish usulidir. Bo'lajak chet til o'qituvchilarini tayorlashda madaniyatlararo muloqot ta'limi metodidan foydalanish tavsiya etiladi.*

***Kalit so'zlar:** madaniyatlararo muloqot; intellektual, ahloqiy tarbiyada madaniyatlararo muloqotning o'rni.*

СИСТЕМА УПРАЖНЕНИЕ НАПРАВЛЕННАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ СТУДЕНТОВ

Каримова Наргиза

Наманганский государственный университет

Старший преподаватель

Убайдуллаев Шухрат Нарзуллаевич

Кандидат педагогических наук, старший преподаватель

***Аннотация.** Современное образование предполагает переход от передачи знаний к формированию компетенций, в том числе межкультурной компетенции. Межкультурное обучение — это методика как осознанного изучения родной культуры, так и освоения других культур. При профессиональной подготовке учителя иностранного языка целесообразно использование метода межкультурного тренинга.*

***Ключевые слова:** межкультурная компетенция; межкультурное обучение на интеллектуальном, аффективном и поведенческом уровнях.*

SYSTEM OF EXERCISES DIRECTED ON THE FORMING OF INTERCULTURAL COMMUNICATION OF STUDENTS

Karimova Nargiza

Ubaydullayev Shuxrat

***Abstract:** Modern education presupposes the transfer from simple passing of knowledge to the formation of competences, including intercultural competence. Intercultural education is a method of deliberate studying of both native and foreign cultures. During the professional foreign-language teacher instruction it is reasonable to use the method of intercultural training.*

***Key words:** intercultural competence; intercultural education at the intellectual, affective and behavioral level.*

Ma'lumki, bilish – obyektiv borliqning inson ongida aks etadigan murakkab va faol jarayon ekanligi fanda nazariy va amaliy jihatdan o'z isbotini topgan. Bilim sezishdan

boshlanadi va kishilar tomonidan ijtimoiy-tarixiy amaliyot mobaynida to'plagan tajribalari orqali boyib boradi. Bilish asosida *ko'nikma* va *malaka* hosil bo'ladi [12].

Ma'lumki, mamlakatimiz hududida ta'lim oladigan o'quvchi va talabalar asosan uch tilni o'rganadilar. Bu tillar ta'lim nazariyasida *ona tili, ikkinchi til va xorijiy til* kabi maxsus nomlar bilan yuritiladi. Uch tilni o'rganish jarayonida o'quvchilar bilim, *ko'nikma* va *malakalarni* egallaydilar [4].

Bizga chet til o'qitish metodikasi kursidan ma'lumki, har bir nemis tili darsi *madaniyatlararo muloqot* sifatida olib boriladi. Nemis tili darsining asosiy vazifalari til o'rganuvchilarning madaniyatlararo muloqot omilkorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'quvchilarni madaniyatlararo muloqotga o'rgatish uchun esa chet til o'qituvchisidan o'z novbatida *til o'rganuvchilarning yoshiga va qiziqishiga mos tarzda mashqlarni tanlash va taqdim etish* talab etiladi [2]. Bunday mashqlar o'quvchilarning chet tildan egalagan bilim, *ko'nikma* va *malakalarini* takomillashtirish bilan birga ularning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilmog'i lozim. Bu esa ularning tili o'rganilayotgan mamlakatlar vakillari bilan muloqot olib borganda vaziyatlardan to'g'ri foydalanish, erkin muloqot qila olish imkoniyatlarini yaratadi.

O'qituvchi shunday mavzularni tanlashi kerakki, ularda o'quvchilarni diniy bag'rikenglik, boshqa millat vakili bilan suhbatlashganda uning madaniyatini hurmat qilish va umumiy xulosalarga tez kelish to'g'risidagi fikrlar bo'lishi talab etiladi. Bunday matnlarni o'qib o'rgangan o'quvchilar tili o'rganilayotgan mamlakatlar vakillari bilan muloqot o'rnatganda ularning fikrlarini to'g'ri va tez tushunadigan, kerakli xulosalarni chiqaradigan bo'lib tarbiyalanadilar.

Mashqlarning bir qismi *kognitiv* (onglilik) tamoyillariga qaratilmog'i taqozo etiladi. Chunki, bu o'quvchilarning chet til darslarida egallagan lingvokulturologik va ijtimoiymadaniy bilimlari, o'z madaniyatini bilishi, o'ylab, to'g'ri fikr yuritib muloqot olib borish natijasida tili o'rganilayotgan mamlakat vakilida mamlakatimiz va madaniyatimiz to'g'risida ijobiy taasurot qoldirishiga xizmat qiladi [3].

Har bir mashqning *dinamika* (harakat) va *statika* (holat) taraflari mavjud. Chet til darslarida mashqlar bajarish uning harakat bilan bog'liq tomoni bo'lsa, darslikda o'quv materialini sifatida tashkil etilishi statika tomoni hisoblanadi [4].

Metodik adabiyotlarda "*mashqlar sistemasi*", "*til va nutq mashqlari*" (I.V.Raxmanov), "*informatsion, operatsion va motivatsion mashqlar*" (V.A.Buxbinder), "*nutqqacha bo'lgan mashqlar*" (M.S.Ilin), "*algoritmik qoida*" (J.J.Jalolov) atamalari ko'p ishlatiladi.

Mashqlar sistemasini quyidagicha tasniflash mumkin: (1) til materialini o'zlashtirishga ko'ra: *fonetik, grammatik, leksik mashqlar*; (2) nutq faoliyati turlarini egallashda qo'llanishiga ko'ra: *tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishga o'rgatish mashqlari*; (3) lingvistik materialga ko'ra: *til va nutq mashqlari*; (4) bilim, *ko'nikma* va *malaka* hosil qilishiga ko'ra: *tayyorlov va amaliy mashqlar*; (5) bajarilish joyiga ko'ra: *sinfda, uyda, laboratoriyada bajariladigan mashqlar*; (6) nutq shakli va usuliga ko'ra: *og'zaki va yozma nutq mashqlari*; (7) tillar soniga ko'ra: *bir tilli va ikki tilli mashqlar*; (8) amallarni mustahkamlashga ko'ra: *biriktirish, o'zgartirish-reproduktiv, tanlash, guruhlash, o'xshatish, farqlash-retseptiv mashqlar*; (9) Yordamchi vositalar ishlatilishiga ko'ra: *ko'rgazmalilik, texnika vositalari, programmalashtirish elementlari yordamida bajariladigan mashqlar*; (10) o'zlashtirish

bosqichlaridan kelib chiqishiga ko'ra: *dastlabki egallash, mashq qilish, amaliyot, takrorlash, nazorat qilish mashqlari*.

Nemis tili mashg'ulotlarida og'zaki va yozma, tanishtiruv, takrorlash va qidiruv mashqlaridan foydalanish mumkin.

Nemis metodist olimi B.Eggert o'zining 1911 yilda nashr etilgan "*Uebungsgesetze im fremdsprachlichen Unterricht*" nomli kitobida birinchilardan bo'lib og'zaki mashqlar ya'ni tinglab tushunish va gapirishni o'rgatishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqdi. Buyuk metodistlar M.Valter, G.Palmer, Ch.Friz, R.Ladolar o'zlarining nazariyalarini yaratishda va amaliyotga tadbiiq etishlarida B.Eggert tomonidan tasniflangan mashqlar tizimidan foydalanishdi [5].

Og'zaki mashqlar deganda, o'qituvchiga taqlid qilish, so'zlarni o'rnini almashtirish, aytilganni o'zgartirish, savolga javob qaytarish va savol berish, fikrga qo'shilish yoki inkor etish mashqlari nazarda tutiladi. Og'zaki nutq jarayonida yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklarni ro'yxatga olish qiyin kechadi.

Kommunikativ metodika g'oyalariga binoan chet tili o'qitish mazmuni tarkibidagi til materiali (leksika, grammatika, fonetika) ni tanlash va o'quv jarayonida qo'llashda funktsional yondashish tavsiya etiladi, ya'ni til o'rganuvchi til hodisalarini nutqiy faoliyat yuritish maqsadida o'zlashtiradi. Muloqot birlamchi ta'limiy vazifa hisoblanganligi sabab, leksik – grammatik materialni egallashda ko'p qo'llaniladigan qoidani quruq yod olib o'qituvchiga aytib berishdan voz kechishni talab etadi. Chet tili ta'limini asosiy maqsadi axborot almashishga qaratiladi.

Kommunikativ (nutqiy) mashqlar kommunikativ motivatsiya nutqiy jarayonda o'rganilayotgan tilni turli stimullarini shaxsiy fikrlarini ifodalashda qo'llaniladi. Kommunikativ mashqlar qiyin topshiriqlarni bajarishda, ya'ni muhokama va qarashlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini (xolis, noxolis) asoslash, kengaytirilgan fikr bildirishda qo'llaniladi.

Ma'lumki, har qanday tilni egallash murakkab jarayon hisoblanadi. Nemis tili ham shular jumlasiga kiradi. Nemis tili darslari samaradorligi, o'quvchilarni mustaqil tarzda ijodiy fikrlashga, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olishga o'rgatish bilan o'lchanadi.

G.Neuner til muhiti mavjud bo'lmagan joyda madaniyatlararo kompetentsiyani shakllantirish uchun darsni kommunikativ metod asosida tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib borish uchun muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va ularni yechishga qaratilgan vazifalarni bajarishni tavsiya etadi [11].

O'quvchilarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish *pragmatik* (amaliy) va *kognitiv* (ongli) xususiyatga egadir. Birinchisi, o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi, ikkinchisi, begona lingvomadaniyatni idrok etishda asosiy vosita vazifasini o'taydi.

Nemis tili darslarida o'quvchilarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish, tili o'rganilayotgan mamlakat(lar) nutq madaniyati, tarixi, bayramlarini o'rganish ikki yo'l orqali: (1) darsda, nemis tili amaliy mashg'ulotlarida va (2) darsdan tashqari ishlar jarayoni (turli tadbirlar, kechalar o'tkazish, to'garaklar faoliyati)da amalga oshiriladi [4].

Talaba madaniyatlararo muloqot jarayonida so'z yordamida o'z fikrini bayon etish va uni suhbatdoshiga to'g'ri yetkazishga o'rgatilar ekan, muloqot muvaffaqiyati axborot

uzatuvchining til bilish saviyasi, ma'naviy dunyoqarashi bilan bog'liq jarayon ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir. Muloqotning boshlanishida o'quvchining xayolida muayyan tasavvur o'z milliy madaniyati nuqtai nazaridan paydo bo'ladi va shakllanishi kuzatiladi. U shu tasavvurni so'zlar, turli imo – ishoralar yordamida sherigiga to'g'ri yetkazmoqchi bo'ladi. O'quvchi o'z nutqini o'z bilim darajasi doirasida kodlaydi va sherigiga yuboradi. Qabul qiluvchi ham o'z navbatida, axborotni o'z tasavvurida, o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda shakllantiradi. O'quvchi fikrini bayon etishda xatolikka yo'l qo'ysa gapini to'xtatib, imo-ishoralarga o'tishi yoki axborot yetkazishning boshqa usullarini qidirishi mumkin.

Nutqiy mashqlar o'z navbatida *tayyorlangan va tayyorlanmagan* mashqlarga bo'linadi. **Tayyorlangan mashqlarda** tayanch so'zlar ishtirokida fikrni o'zgartirib va to'ldirib izhor etish, fikrni bayon etishda rasm, kino, diafil'm va matn singari axborot manbalaridan foydalanish va o'rganilgan mavzu yuzasidan reja tuzish hamda rejaga bo'yicha hikoya qilib berish asos qilib olinadi. **Tayyorlanmagan mashqlarda** esa o'quvchilardan oldin ko'rgan fil'm va o'qigan asarlarga o'z munosabatini bildirish yoki o'y-fikrlarini o'z hayot tajribasidan kelib chiqqan holda gapirib berish tavsiya etiladi.

O'quvchilarning tayyorlangan nutq darajasini tekshirish uchun darsda qo'llaniladigan quyidagi axborotlar namunalari olindi: (1) oldindan darslikdagi matn olib o'qiladi va qayta hikoya qilish uchun tayyorlanadi; (2) ko'rilgan o'quv fil'mi bo'yicha taassurotni gapirib berish uchun oldindan tayyorgarlik ko'riladi; (3) o'quvchilarga oldindan gazeta maqolasi berilib, uning mazmunini hikoya qilib berish uchun tayyorgarlik qilinadi.

Tayyorlanmagan nutqda esa: (a) dars jarayonida matn o'qiladi va qayta hikoya qilib beriladi; (b) bilvosita dars paytida o'quvchi tomonidan taqdim etilgan rasm tasvirlab beriladi; v) munozarali bahslarda ishtirok etiladi.

Kommunikantlar o'rtasidagi muloqot jarayonida ular bajaradigan rollardan tashqari, suhbat o'tkaziladigan joy va vaqti kabilar muloqot sharoiti hisoblanib, unga turli darajada ta'sir ko'rsatadi [9].

O'quvchilarning mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qib undagi yakunlarni tushunishganliklari tekshirilganda quyidagilar aniqlandi:

1. **Sodda matnlar.** O'quvchilar mamlakatshunoslikka oid murakkab bo'lmagan asliyat (original) matnlarni o'qiganlarida matndagi hamma so'zlarga tushunishlari kuzatildi. Notanish so'zlar uchramadi. Bunda matndagi axborot o'quvchiga to'g'ri yetib keldi, o'zgarmadi va biror bir so'z tushub qolmadi. Madaniyatlar o'rtasidagi farq sezilmadi.

2. **Qisman murakkab matnlar.** Ushbu matnlarni o'qish jarayonida notanish so'zlar uchradi, ularni tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar tug'ildi. Matndagi mazmun qisman yo'qoldi. Tarjima jarayonida so'zlarning hajmi ko'payishi kuzatildi.

3. **Murakkab matnlar.** Matndagi ba'zi so'zlarning muqobili tarjima qilinayotgan tilda umuman bo'lmasligi turli qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Matnlarni o'qib tushunish jarayonida so'zlar tarjimasi normadan oshib ketadi. Matnni o'qish jarayonida fikrlash, mulohaza qilish, bilish faoliyatining asosiy shakli, usuli psixologik mehanizmidir. Bilish farqlash asosida kechadi.

O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirganlik darajalari nazorat qilish orqali aniqlanadi. Chet tili darslarida o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot layoqatini takomillashtirish uchun amaldagi darsliklarda ko'zda tutilgan mashqlar bilan bir qatorda muloqot usulida o'tkaziladigan quyidagi mashqlar tavsiya qilinadi:

1. Berilgan juft nutqning mazmunini tahlil qiling.
2. Dialogni o'qing va uni takomillashtiring.
3. Turli vaziyatlar tasvirlangan rasmlar asosida dialog tuzish: Masalan: Bozor. Bir ayol kishi qo'lida xalta ko'tarib ketyapti. Savollarga javob bering...
 2. Yangi so'z bilan ishlash.
 3. Rasmni yozma tasvirlab berish.
4. Rolli o'yinlarni o'tkazish. Rolli o'yinlarni nutq madaniyatini o'stirish, verbal va noverbal muloqotga tayyorlash maqsadida qo'llash mumkin.
5. Munozara – faol o'qitish metodlaridan bo'lib, o'quvchilarda tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga doir yangi bilimlarni shakllantirish, xulosa chiqarish, o'z fikrida turish, uni himoya eta olish kabi kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.
6. O'zgarlar nutqini kuzatish va tahlil qilish.
7. Muammoli mavzular bo'yicha suhbat. Muammoli ta'lim o'quvchilarni izlanishga, o'ylashga, mustaqil fikrlashga undaydi. Nutqiy mavzularning taxminiy nomlari o'quv dasturiga muvofiq tanlandi va tajriba – sinov chog'ida darslarning asosini tashkil etdi.

Bundan xulosa shuki, bir madaniyat vakili boshqa bir «begona» madaniyat vakilining fikrini tushunish uchun to'g'ri tarjima qila olish malakasiga ham ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga kommunikantlarning umumiy ikrga kelishlari uchun bir qator to'siq va qiyinchiliklar mavjud bo'lib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun mahsus mashqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Tarjima murakkab jarayon bo'lib, puxta bilimni, yuksak mahoratni, keng dunyoqarashni, qobiliyatni talab qiladi.

References:

1. Barishnikov N.V. Parametri obucheniya mejkulturnoy kommunikatsii v sredney shkole // Inostrannie yaziki v shkole. 2002. № 2. S.54-58.
2. Bim I.L. Teoriya i praktika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole: Problemi i perspektivi. – M.: Prosveshenie, 1988. – 234 s.
4. Galskova N.D. Sovremennaya metodika obucheniya inostrannim yazikam. 2-e izd. – M.: ARKTI, 2003. – 286 s.
3. Galskova N.D. Mejkulturnoe obuchenie: problema seley i sodержaniya obucheniya inostrannim yazikam // Inostrannie yaziki v shkole. 2004. №1. – S.22.
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1996. – 368 b.
5. Ilin M.S. Osnovi teorii uprajneniy po inostrannomu yaziku // Pod red. prof. V.S.TSetlina. –M.: Pedagogika, 1975.–S.103.
6. Saidaliyev S. Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan: NamDU, 2004. – 238 b.

7. Ter-Minasova S.G. Yazik i mejkulturnaya kommunikatsiya. –M., 2000. –376 c.
8. Xaleeva I.I. Interkultura — trete izmerenie mejkulturnogo vzaimodeystviya? (Iz opita podgotovki perevodchikov) // Aktualnie problemi mejkulturnoy kommunikatsii. –M., 1999. S. 5-15.
9. Sisoiev P.V. Kulturnoe samoopredelenie lichnosti v kontekste dialoga kultur. Tambov, 2001.
10. Setlin V.S. Realnie situatsii obsheniya na uroke // jurnal Inostrannie yaziki v shkole. – 2000. – № 3. – S. 24-26.
11. Chet til o'qitish metodlari/ G.Neuner, H.Hunfeld. Nemis tilidan S.Saidaliyev tarjimasi. – Namangan: NamDU, 2005. – 240 b.
12. G'oziyev E. Psixologiya. Yosh davrlari psixologiyasi. – T.: O`qituvchi, 1994. – 224 b.